

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O'zbek adabiyoti kafedrası
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'limi yo'nalishi
3-bosqich "D" guruh talabasi
VALIEVA ZULXUMORNING tayyorlagan**

R E F E R A T I

**MAVZU: ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKINNING "KAPITAN
QIZI" POVESTI VA ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR"
ROMANINING QIYOSIY TAHLILI.**

ILMIY RAHBAR: Prof. D. QURONOV

Andijon - 2016

MUNDARIJA:

1. Kirish.
2. Qiyoslanayotgan asarlarda obrazlar tizimidagi mushtaraklik.
3. Syujet motivlaridagi o'xshashliklar.
4. Xulosa.


KIRISH

Pushkin va Abdulla Qodiriyning qay bir asarini o'qimang, ular xuddi kechagina yozilgandek tuyiladi. Shuning uchun ham bu asarlar har qanday go'shalarga yetib bordi. Bu ikki buyuk so'z san'atkorining taqdiri yana bir haqiqatni tasdiqlaydiki – daho shoirlar, ulug' adiblar hamisha bir xalqning farzandi, bir muhitning mevasi o'laroq maydonga keladi-yu, keyinchalik hamma xalqlarning farzandiga aylanib ketadi. Nega shunday? Buning sababi shundaki, Pushkin va Abdulla Qodiriy o'z davrining eng ilg'or g'oyalarini yuksak mahorat bilan ifodalagan edilar. Ba'zan o'z ko'лами nuqtayi nazaridan muhim voqealarni qamrab olgan asarlar ham kitobxonni o'ziga yetarlicha jalb qila olmaganidan arzimas g'oyalarni ifodalagan asarlar qatoriga tushib qoladi. Biroq, ko'pincha, oddiy mavzularga bag'ishlangan asarlar ham yozuvchi mahorati tufayli barcha davrlarda kitobxonni o'ziga qattiq jalb qiladi va hayotning katta haqiqatlarini aks ettirgan qudratli asarlar darajasiga ko'tariladi. Ana shunday ularning asarlari ham kitobxonga manzur bo'ladigan, qiziqishini uyg'otadigan va real hayotni ifodalagan asarlardandir. Bu ikki ijodkor o'z asarlarida umuminsoniy haqiqatlarni kuylagan, erk, ozodlik, yurt qayg'usi, vatan taqdirini o'ylagan shaxslardir. Bu borada Maqsud Shayxzodaning Pushkin ijodi haqida: “Erkinlik va ozodlik mavzusi, Pushkin ijodining asosiy mavzusi”,- degan so'zlarini eslash o'rinlidir. Zero, Abdulla Qodiriyda ham bu g'oyalar yetakchi o'rinni egallaydi. Pushkin va Abdulla Qodiriy ijodi odamlar qalbida erkka va ezgulikka ishtiyoqini barq urdirib, zulmat ichidagi nurdek porladi. Bu ikki buyuk zot erksevarlik g'oyalarini, zulmga qarshi otashin nafratlarini o'z asarlariga singdirib yubordilar.

Bugun Pushkin va Abdulla Qodiriy haqidagi kitobxon va adabiyotshunoslar tasavvurini umumlashtirib, bu mohir adiblarimiz haqida quydagi fikrlarni qayd qilish mumkin: ular adabiyot rivojiga qimmatli hissa qo'shgan, faqat badiiy asarlari bilan emas, o'zining shaxsiy fazilatlarini, hayot va ijodga munosabatlari, hayotni sinchikovlik bilan o'rganishganligi bilan yoshlarga o'rnak bo'lgan yozuvchilardir.


QIYOSLANAYOTGAN ASARLARNING OBRAZLAR TIZIMIDAGI
MUSHTARAKLIK

Pushkinning “Kapitan qizi” povesti va Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanlari, yuqorida aytib o’tkanimizdek, o’quvchi dunyoqarashini kengaytiruvchi asarlardandir. Albatta, Pushkin va Abdulla Qodiriy buyuk adiblar sifatida har qaysisi o’ziga xos, bir-birini takrorlamaydigan ikki asar yaratgan. Biroq bu asarlarning mushtarak tomonlari ham bor. Birinchi navbatda, bu mushtaraklik obrazlar tizimida yaqqol seziladi. Ikkala asardagi obrazlar tizimining o’xshashligi bir qarashdayoq ko’zga tashlanadi. Bu narsani yanada aniqroq tasavvur qilish uchun quydagi sxemalarni keltirish mumkin:



Yuqoridagi 1-sxemada Qodiriy romanidagi obrazlar tizimini ko’rishimiz mumkin. Bu sxemada asarning bosh qahramoni Otabek va unga eng yaqin bo’lgan kishilar: padari buzrukvori Yusufbek hoji, hayotining eng shirin hamda eng achchiq kunlariga sababchi bo’lgan muhabbati Kumush va sodiq xizmatkori Hasanali tasvirlangan bo’lsa, sxemaning quyi qismida, Otabekka qarama-qarshi bo’lgan, ashaddiy dushmani Homid ko’zga tashlanadi.

Xuddi shunday obrazlar tizimini Pushkinning “Kapitan qizi” povestida ham ko’rishimiz mumkin: asarning bosh qahramoni Pyotr va unga yaqin bo’lgan shaxslar: otasi Andrey Petrovich, muhabbati Masha, sadoqatli xizmatkori Savelich va unga qarshi bo’lgan dushmani Shvabrin. Xuddi, Qodiriy asarida tasvirlangan obrazlar kabi bir xil darajalanadi. Buning isboti uchun quydagi 2-sxemaga qaraymiz:



Bu sxemalarda keltirilgan bosh qahramonlar Otabek va Pyotr taqdirning taqozosi bilan o’z yurtidan boshqa yerga kelgan shaxslardir. Ikkovi ham yangi muhitga ko’nikadi, yangi odamlar bilan tanishib, ular bilan muloqotda bo’ladilar. Lekin ularning bu yerlarga kelishidan maqsadi boshqa-boshqadir. Otabek savdo masalalari bilan kelgan bo’lsa, Pyotr vatan oldidagi burchini o’tash uchun harbiy xizmat yuzasidan keladi. Asarlarning asosiy voqealar rivoji ham aynan mana shu yerdan boshlanadi. Otabek eng shirin va eng azobli dardi bo’lgan muhabbati Kumushni Marg’ilondan topsa, Pyotr ham suyukli yorini Belogor qal’asida uchratadi. Endi bosh obrazlarning “qora” va “kirliq” kunlariga sababchi bo’lgan ashaddiy dushmanlari Homid va Shvabringa to’xtalsak. Bularning Otabek va Pyotrga asosiy dushmanligiga sabab, Homidning Kumushga maylligi bo’lsa, Shvabrinni Mashaga maylligi borligidadir. Shuning o’zi ham obrazlarning bir

mushtaraklik tomonidir. Yuqoridagi jumalardan ma'lum bo'ladiki, Otabekning Marg'ilonga, Pyotrni Belogor qal'asiga kelib joylashganliklari. Ularga shu safar chog'ida birga hamroh bo'lgan, bir daqiqa ham ayrilmagan, yoshlikdan tarbiya qilgan va og'ir kunda ko'maklashgan, xatto jonini berishga tayyor bo'lgan Otabekning "ma'naviy ota" si Hasanali va Pyotrning jonkuyari Savelich obrazlariga yondashsak. Ular ikkovi ham qul va xizmatkor. O'z xo'jalariga sodiq, g'amxo'r va sidqidildan xizmat qiladilar. Hasanali va Savelichning o'z xo'jayinlariga nisbatan murojaatlarida ham o'xshashliklar bor. Ikkovi ham "begim" deb murojaat qiladi. Otabekning padari buzrukvori Yusufbek hoji va Pyotrning otasi Andrey Petrovich Grinyov asarlarning asosiy qahramonlaridan biri. Bu qahramonlarning o'xshashlik tomoni vatan ravnaqi, yurt tinchligi va osoyishtaligi uchun jonini berishga tayyor shaxslardir. Sxemadagi obrazlarning keltirilishi ikki asardagi qiyosiy va asosiy mushtaraklik tomonlardir. Aslida bu sxemani yanada kengaytirish mumkin, buning uchun bu qahramonlarni bir-biriga taqqoslash kerak:

Masalan, "O'tkan kunlar" dagi bosh qahramon Otabek obrazini olaylik. U yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo'lga jonini tikkan fidoyi shaxsdir. Binobarin, u o'limdan qo'rqmaydi, shirin jonidan or-nomusni ustun qo'yadi. Xo'rlikdan ko'ra o'limni afzal ko'radi. Bu narsani jallod Musulmonqul fitnachilikda ayiblanib, Qo'qon o'rdasiga keltirilgan Otabekka g'azab o'tini sochganda, u tahlikaga tushmaydi, "hukmingizni chiqaravering" – deydi bosiqlik bilan. Bunday javob Musulmonqulday battol kimsani ham hayratga soladi: "Dov yuraging bor ekan, yigit" - deydi zavqlanib. Oqibatda, Hasanali keltirgan, Normuhammad qushbegi tomonidan yozilgan xatni o'qigach, "uyatsiz ravishda Otabekka qarab iljayadi". Bu holatni muallif yana takrorlaydi: "Musulmonqul oqsolanib, o'z qo'li bilan Otabekka zarrin to'n kiyguzar ekan:

-Otangizning katta xizmati soyasida o'limdan qutulg'aningizdek zarrin to'nliq ham bo'ldingiz, - deb yana bir qayta uyatsizlandi".

Bu xatti-harakatlarni “Kapitan qizi” asaridagi bosh obraz Pyotrda ham ko’rishimiz mumkin. Isyonchi Pugachyov Belagor qal’asini qo’lga kiritgach, o’zini shoh deb barchani ont ichira boshlaydi. Navbat Pyotrغا kelganda, u olijanob o’rtoqlaridek: “Sen mening shohim emassan, sen o’g’ri va xoinsan” javobini berishga hozirlanib, uning yuziga tik qaraydi. Yana bir o’rinda “yolg’on podshoh” unga sodiq xizmat qilishini so’raydi, xatto knyaz qilishini aytadi. Bunga ham qat’iyat bilan “yo’q” javobini beradi. Isyonchidan Orenburgga ketishini so’raydi.

“Pugachyov o’ylanib qoldi: “Agar javob bersam, - dedi u, - menga qarshi ish qilmaslikka va’da berasanmi?””

Bunga javoban Pyotr va’da bera olmasligini, ixtiyor o’zida emasligini, qarshi chiqishini buyirsalar, qarshi chiqishini aytadi va “Jonim sening qo’lingda: ozod qilsang - qulluq; o’ldirsang - tepangda xudo bor; rostini aytdim” - deydi. Pugachyov ham bu javobni eshitib, xuddi Musulmonquldek hayratda qoladi: “O’ldiradigan bo’lsam o’ldirganim tuzuk edi, afv etgan ekanman, endi afv etay”, - deb uni qo’yib yuboradi. Bundan tashqari, Pyotr dor ostidan qaytgach, o’yga toladi: “Badkorlar qo’l ostida turgan qal’ada turish, yoki uning shaykasiga qo’shilish ofitser uchun nomus”, -deb o’zining ontiga sadoqatli ekanligini ayon qiladi.

Yuqoridagi holatlardan ko’rinib turibdiki, har ikki qahramonda mardlik, yuksak ma’nodagi vijdon, haqiqatparastlik, dovyuraklik tuyg’ulari yaqqol ko’zga tashlanadi. Bu bir-biriga bog’liq tushunchalar haqida to’xtalar ekanmiz, bu ikki obrazda bu buyuk insoniy tuyg’ular mujassamligini quydagi kurash lavhalarida ham ko’rib o’tish mumkin. Zero, Otabek ilk marotaba usta Farfidan ikki marta o’limning nafasi urib turgan jar yoqasidan qaytishi, ikki yillab azob-uqibatda, sarson-sargandorlikda yurishini bosh sababchisi bo’lgan Homid haqida eshitadi. “O’tkan kunlarini zahar bilan bulg’ab kelgan dushmaniga qaysi yo’sin bilan javob berish” ni o’ylaydi va bu qora kirliq kunlariga sababchi bo’lgan dushmaniga qarshi yakka o’zi kurashadi. Otabekdan buni eshitgan usta Alim hayratda qoladi: “Uch dushmanga qarshi yolg’iz o’zingiz?” savoliga, Otabekdan “Yolg’iz o’zim!”

javobini olgach, “Subhonolloh! Qanday yuragingiz bor ekan”, - deydi ajablanib. Xatto qutidor ham bundan ajablanib “Uch kishiga tanho o’zi?” - degan savolni beradi.

Pushkinning bosh qahramoni Pyotr ham Shvabrinni o’z dushmani ekanligini anglamagan holda unga Masha haqida yozgan she’rini o’qib beradi, buning natijasida, Shvabrindan: “Agar sen Masha Mironovanning kechqurunlari qosh qorayganda uyingga kelishini xohlasang, bunaqa she’rlar yozish o’rniga bir juft isirg’a taqdim qil” javobini olgach uning qoni qaynaydi. Mariya Ivanovadan Shvabrin uni yaxshi ko’rishligini, unga kishi qo’yganligini eshitib, Pyotrni “ko’zini ochdi va ko’p narsalarni anglatdi. Uning to’g’risida Shvabrin nima uchun shunchalik g’iybat qilishini” angladi. “Qo’pol va adabsiz masxaraning zamirida o’ylanilgan, taglik bo’hton borligini” biladi. “Yuzsiz g’iybatchining ta’zirini berish xohshi” xuddi Otabek kabi unda ham avj oladi va qulay fursatni kutadi. Shvabrin bilan Otabek kabi yakka o’zi kurashadi. Bu ikki qahramonning farqli jihati shundaki, Otabek uch dushman bilan olishsa, Pyotr birgina Shvabrin bilan duelga chiqadi. Ikkovi ham yaralanadi, lekin Otabek uch dushmanga bas kelgan holatda ularni o’ldiradi, Pyotrni dushmani esa omon qoladi.

Otabekka xos xususiyatlardan yana biri, uning o’z atrofida qilargalarga xatto xizmatkoriga ham alohida bir hurmat bilan yondashishi ifoda etilgan. Rahmat Otabekdan Hasanalining kimligini so’raganda, “Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka” qaraydi. Uning ko’ngli o’ksimasin deya “Hasanalini hujradan uzoqlatib” so’ngra “Qulimiz” deb javob beradi. Homid ham Otabekning bu odobidan ajablanadi. Yana bir o’rinda Hasanalining: “Men sizni kimingiz?” savoliga javoban Otabek: “Otam bo’lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz - yani ma’naviy otam” deydi. Bu muomiladan ko’rinadiki, Otabekning Hasanaliga nisbatan qanchalik mehr-muhabbati kuchliligi, uni ko’klarga ko’tarishi ayon bo’ladi.

Ikkinchi qahramonimiz Pyotr Otabekdan farq qilgan holda xizmatkoriga qo’pol, qo’rs muomila qilsa ham, u bilan tez-tez janjallashib qolsa ham ayb

o'zidaligini bilib, uni oldida o'zini gunohkor sezadi va unda kechirim so'raydi. "Bundan keyin bu xilda noma'qulchilik qilmaslikka, gaplariga quloq solishga" va'dalar beradi. Yana bir o'rinda Mashani qutqarish uchun Belogor qal'asiga ketayotganda Savelich Pugachyov odamlari qo'liga tushib qoladi va uni xizmatkor - ku deb tashlab qo'ymasdan, uni qutqarishga shoshiladi. Bu holatdan Pyotrni Otabek kabi xizmatkoriga mehr-muhabbatini, jonkuyarligini, u uchun qayg'urishini ko'rishimiz mumkin.

Yana bu ikki qahramonning sevgi-muhabbat masalasidagi mushtarakligini ko'rib o'tsak: Otabek - chin muhabbat egasi. U Kumushni bir ko'rishidayoq muhabbat dardiga muhtalo bo'ladi, unga oshiq-u beqaror bo'ladi. Bu narsani asarda ilk marotaba "Ziyo shohichi deganning Rahmat otlig' o'g'li" tomonidan Kumush haqida eshitgan Otabek "nima uchundir g'ayriixtiyoriy bir tebrandi. Uning yuzida bir o'zgarish va vujudida bir chayqalish " sodir bo'lganida ko'rishimiz mumkin. Bu holat kundan - kunga zo'rayib, boshqacha tus ola boshlaydi: bu "xayol ichida barchani unitib qo'yishi va boshqa ishlarga e'tibor va parvosizligi edi". Bu vaziyatdan Hasanali ham "ajabsinib" yuradi va bir muncha tashvishga tushadi. Bir kuni Otabekning "uyqusirag'an": "Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho'chib qochishlar... Uff" kabi tovushni eshitib, masalaga tushunadi va o'zicha "Bek oshiq!", - deydi. Haqiqiy muhabbatgina inson qalbiga bu dunyoda davosi yo'q dard misoli kiradi. Otabek ham ana shunday bedavo dardga chalingan edi. Yoki bo'lmasa, Otabek Kumushni Komilbek bilan to'yi xabarini eshitgan holatini olaylik: "Jonso'z bu xabarni eshitkan Otabekning hushi boshidan uchgan kabi bo'ldi-da, adim uzgan joyida mixlangadek qotib qoldi... Marg'ilon ko'chalarida tentaklarcha yugura boshladi. Uning bu kungi holig'a qarash yuraklarni yorg'anidek tasvirga ham qalam kuchi ojizdir... ". Ana uning dardmandligining holati.

Pyotrda bu holat boshqacha tusda ro'y beradi. Birinchidan, uning muhabbati Otabekdan farqli o'laroq Mashani bir ko'rishda, qiz unga dabdurusdan ma'qul bo'lmaydi. Unga xushlamayroq qaraydi. Bunga sabab Shvabrinning qiz haqida:

“Kapitan qizi Masha mutloq ahmoq qiz” deganligidir. Rahmat Kumushni maqtab, Otabek muhabbatini alangalatgan bo’lsa, Shvabrin esa Mashani yomonlaganligi uchun qizni birinchi ko’rishdayoq Pyotrda boshqacha salbiy tasavvur uyg’onadi. Bir necha hafta o’tmasdan bu tasavvurlar o’z aksini topadi. Chunki Pyotr Masha bilan qalin bo’lib qolgan, uning ancha aqlli, ziyrak qiz ekanligiga ishongan edi. Bora - bora unga qattiq bog’lanib qoladi. Buning natijasida, unda muhabbat tuyg’usi cho’g’ bo’la boshlaydi va Otabek singari alangalanib, yuragida og’ir dard paydo bo’ladi. Bu yurak tuyg’ularni qayerga sig’dirishini bilmay, Mashaga atab she’r yozadi:

“Holimga nazar sol va dardimni bil,

Boshimda ne savdo, Masha, achingil.

Fursat zich va og’ir, o’zing rahm qil,

Sening maftuningman, seni deydi dil.”

Ikkkinchi holatni oladigan bo’lsak, Pyotr ham Otabek holatiga tushadi. Belogor qal’asi qo’zg’alanchilar qo’liga o’tgandan so’ng, Shvabrin u yerga boshliq bo’ladi va Mashani majburlab, unga uylanmoqchi bo’ladi. Bu xabarni eshitgan Pyotr aqldan ozayozadi, qizni qanday qilib qutqarish haqida o’ylaydi. Generaldan yordam ololmagach, o’zi yana Belogor qal’asiga jo’naydi. Pugachyov uning dadilligini, muhabbatiga sodiqligini ko’rib, uni yana avf qiladi. Qizni oldiga o’zi olib borishini aytadi. Yo’lda ketar ekan “endi yo’qotdim” degani bilan uchrashishini o’ylaydi, yuragi bir muncha orziqadi. Xuddi shu holat Otabekda ham bor. U otasidan Kumush kelish xabarini eshitib, borlik, yo’qlik holatiga tushadi, “issig’ bir narsa badaniga tekkandek hurkinib” qo’yadi. Mana ikki oshiqning samimiy va sof muhabbat. Ammo bu muhabbat ikkisida ayricha yakunlanadi, Pyotr bilan Masha uzoq va baxtli hayot kechirsalar, Otabekda bu holat aksincha yuz beradi. Qahramonlr taqdirларining eng katta farqi ham mana shundadir.

Yuqorida tilga oligan, asarlardagi ijobiy obrazlardan biri bo'lgan Kumush bilan Masha obrazini olaylik, bu ikki qahramon orqali bizning ko'z oldimizda: aql-zakovatli, zehnli, qalbidagi muhabbatni oshkor etmaydigan, muhabbat va baxtga o'zini to'la huquqli deb hisoblovchi, va muhabbati toptalganda ham bu yo'lda har qanday azoblarga bardosh bera oluvchi shaxslar gavdalanadi. Masalan, Kumushning Homid tilidan yozilgan soxta taloq xatini olgandan keyingi iztiroblarida ko'rishimiz mumkin. Shunday bo'lsa ham Kumush barchasiga chidadi, uyiga kelgan turnaqator sovchilarga: "Man endi er qilib bo'ldim, mundan so'ng erga ehtiyojim yo'q", degan qat'iy javobni beradi. Bundan ikki holni anglash mumkin, birinchidan, o'zi suygan, muhabbat qo'ygan eridan bunchalik vafosizlik ko'rishi, "Endi er degani shu bo'libdimi? Mundan ko'ra dunyodan toq o'tkan yaxshiroq, yolg'iz o'tgan tinchroq" deb o'ylasa, ikkinchi tomondan, Otabekka bo'lgan ishq so'nimgan, o'z muhabbatiga sodiqligini ko'rish mumkin.

Kapitan qizi Masha ham Pyotrga ko'ngil bergan, lekin buni Kumush kabi oshkora bildirmaydi. Pyotr unga turmush qurishni taklif qilganda ham, unga javob o'rniga "Xudo haqqi o'zingizni urintirmang, - dedi, qo'lini tortib. - Hali ahvolingiz og'ir: jarohatingiz ehtimoli bor. Hech bo'lmasa mening uchun o'zingizni ehtiyot qiling" uning roziligini shu javobidan anglashimiz mumkin. Lekin Pyotrning otasi bunga rozilik bermaydi. Masha esa garchi Pyotrda ko'ngli bo'lsa ham, "Ota - onangiz rozi bo'lmasdan sizga tegmayman" deb turib oladi. U shunchalik irodaliki, ota - ona rizoligi uchun ayriliq dardiga chidaydi. Chin muhabbatidan voz kechish darajasiga boradi. Lekin Shvabrin unga majburlab uylanmoqchi bo'lganida Masha bunga rozilik bermaydi (xuddi Kumush ham kelgan sovchilarga, xususan, Homidning sovchilariga rozilik bermaganidek), o'z muhabbatiga sodiq qoladi.

Bundan tashqari, Kumush bilan Masha aql - zakovati, ziyrakligi va ko'rsatgan jasoratlari bilan o'sha zamon qizlaridan ajralib turadilar. Masalan, Kumush otasi va eri qamalganida Yusufbek hoji tomonidan yozilgan xatni topib oladi va uni o'rta odam qo'ymay o'zi mahkamaga olib borib, Otabek va Mirzakarim qutidorni dor ostidan qutqarib qoladi. Bu uning katta jasoratidir. Zero,

Kumush xatni topib olmaganida, topib olsa ham uni ahamiyatsiz deb hisoblab mahkamaga olib kelmaganida yoki bo'lmasa birozgina kech qolganida o'zining eng yaqin kishilaridan ajralib qolgan bo'lar edi.

Masha ham nima sababdan Pyotr isyonchilikda ayblanib oqlanmay qolganini va uzoq Sibirga surgun qilinishini yaxshi anglaydi (Sibir degani maxbuslar uchun o'lim bilan barobar joy), u ham Kumush kabi o'zida qandaydir jasoratni his qilib, arizasi bilan podshoxonim bilan uchrashishga qaror beradi. Ne ajab bo'lsinkim, o'zi bilmagan holda malika bilab uchrashadi. Hamma gaplardan boxabar bo'lgan malika Pyotrni gunohsizligiga ishonadi va uning otasiga o'z qo'li bilan xat yozib beradi. Bu xat mazmuni Pyotrni oqlanishi va Mashaning "aql va qalbi to'g'risidagi maqto'vni" o'z ichiga oladi.

Hasanali Otabekning, Savelich esa Pyotrning eng sodiq, eng ishonchli kishilaridandir. Hasanali uddaburon, hozirjavob, tadbirli, sadoqatli, aqlli, g'amxo'r, vijdoni pok, mehribon – umuman oddiy insonga xos eng yaxshi fazilatlarini o'zida mujassamlantirgan kishi obrazi sifatida kitobxon hurmatiga sazovor bo'ladi. Ayniqsa, uning uddaburon va hozirjavobligiga qoyil qolmay iloj yo'q. Ziyo shohichinikida bo'lgan yig'inda Otabek haqida Homid tomonidan aytilgan: "Bundog' yigitlar uylanganlarida ham kishi qizini umr bo'yi azob ichida o'tkazadirlar..." sababiga tushinishi qiyin bo'lgan bu achchiq so'zlarga Hasanali ham sukut qilmaydi: "...hatto zarxarid quli bo'lg'an holda menga ham qattiq so'z aytishdan saqlang'an bir yigit o'z nikohida bo'lg'an ozod bir qizg'a albatta zahmat bermas, deb o'ylayman" deya uddaburonlik bilan javob beradi va shu bilan birga "Ba'zi xotin uradigan va xotin ustiga xotin olib, xotinlarig'a zulm qiladurg'an hayvonsifat kishilardan bo'lib ketishi menimcha ehtimoldan juda uzoqdir" kabi aytgan kinoyasi Homidning o'ziga zararli bo'lib chiqadi. Otabek Kumushga oshiq bo'lib, dardmand bo'lib yurganida, turli xil xayollarga borgan Hasanali undan havotir oladi, Yusufbek hojining "O'g'limning har bir holidan xabar olib turish sening vazifangdir" va O'zbek oyimning yig'lab: "Seni xudoga,

Otamni senga topshirdim” kabi so’zlarini eslab qayg’uga botadi. Otabek uchun qanchalik javobgar shaxs ekanligini o’ylaydi.

Yuqoridagi Hasanaliidagi bor sifatlarni Pyotrning xizmatkori Savelichda ham sanab o’tish mumkin. Bunga misol sifatida Pyotrni Pugachyov dorga osmoqchi bo’lganida, unga yolvoradi. “Otaxonim! – der edi u bechora. – Bir barinning farzandini o’ldirishdan senga nima foyda? Qo’yib yubor uni; xunining pulini beradi; muddao kishilarni qo’rqitish va jazolash bo’lsa, men cholni osaqol!” kabi so’zlar bilan Pyotrni qutqarib qoladi. Yana bir o’rinda Belogor qal’asidan ketar paytida Savelich Pugachyovga xat berib, barcha xarajatlarini to’lashini so’raydi. Pugachyov bundan jahli chiqib, do’q urganida Savelich quydagicha javob beradi: “O’zing bilasan, men bir xizmatkorman, xo’jayinning narsalariga javogarman”. Cholning shu so’zlaridan Pyotrga nisbatan qanchalik jonkuyarligini, mehribonligini va u uchun jonini berishga tayyorligini ham ko’rishimiz mumkin. Otabekning ota-onasi u haqida qayg’urishni Hasanaliiga ishonib topshirgan bo’lsa, xuddi shunday Savelichga ham Pyotrning ota-onasi bolasidan xabardor bo’lishini, unga g’amxo’rlik qilishini qattiq tayinlaydi.

Asarlardagi ijobiy obrazlardan tashqari, salbiy obrazlarga ham to’xtalib o’tsak. Birinchi navbatda, Otabekning ashaddiy dushmani bo’lgan Homidning tashqi ko’rinishidan boshlasak. “O’tkan kunlar” da qahramonlarning tashqi ko’rinishi, jismoniy qiyofasi ularning ma’naviy, ruhiy olamiga monand qilib tasvirlanadi. Ana shunday Homid ham barcha yovuz illatlarning bosh uyasi bo’lgani kabi uning tashqi qiyofasi ham ko’z oldimizda shunday gavdalanadi: “...uzun bo’ylik, qora cho’tir yuzlik, chag’ir ko’zlik, chuvoq soqol, o’ttiz besh yoshlarda bo’lg’an ko’rimsiz bir yigit edi. Bu yigit yaxshigina davlatmand bo’lsa ham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo’lmay, “Homid xotinboz” deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so’zlashkanda uning otig’a taqilg’an laqabni qo’shib aytmasalar, yolg’iz “Homidboy” deyish ila uni tanita olmaydirlar” kabi tasvirlar buning yaqqol isbotidir. Yuqoridagi tasvirdan Homidning ancha yengiltabiat xarakterdagi shaxs ekanligi ham ayon bo’ladi.

“Kapitan qizi” asaridagi Shvabrinni ham xuddi Homid kabi tashqi qiyofasidan uning qanday shaxs ekanligini bilib olishimiz mumkin: “...yoshgina, o’rta bo’yli, birqadar xunuk bo’lsa ham g’oyat tetik, to’la yuzli bir ofitser”. Homid “ko’rimsiz bir yigit” sifatida tasvirlangan bo’lsa, Shvabrin ham “birqadar xunuk” afitser sifatida o’quvchi ko’z oldida gavdalanadi. Lekin ularning qilgan yomonliklari oldida tashqi qiyofalari dengizdan bir tomchi, xolos. Bu qahramonlar faqat o’z manfaatini o’ylaydigan, chaqimchilik, tovlamachilikdan qaytmaydigan, xatto odam o’ldirish darajasiga bora olgan shaxslardir. Bunga misol qilib, Homid Otabekni o’ldirishga harakat qilgani, bir bechora gunohsiz Komilbekni o’ldirganini keltirish mumkin. Shvabrin ham odam o’ldirgani uchun Belogor qal’asiga kelib qolgan, Pyotrni o’ldirishiga ham sal qoladi. Bu obrazlar yuqorida aytib o’tkanimizdek, o’z manfaati yo’lida chaqimchilik qilishdan ham toymaydi. Homid Kumushga yetishish yo’lida Otabekka nohaq ayblovlar qo’yib, qo’rboshini pora bilan sotib oladi. Bunda Otabek oqlanib chiqqach, endi Musulmonqulga xat yuboradi. Otabek aybsiz bo’lgani uchun Musulmonquldek balodan ham qutilib qoladi. Bu bilan ham qanoatlanmagan Homid endi boshqa yo’lni tutadi. Kumushga Otabek nomidan soxta taloq xati yozib, unga jo’natadi. Otabek boshiga kelgan kulfatlarning bosh sababchisi bo’lgan dushmani Homidga qilgan yaramas, qabih ishlariga yarasha jasosini beradi. Shvabrinning ham Mashaga moyilligi bo’lganligi uchun Pyotrdan uni qizg’onadi. Pyotr qizni yoqtirib qolmasligi uchun Masha haqida yolg’on, bo’lmag’ir g’iybatlar qiladi. Pyotr Mashani baribir yoqtirib qoladi, Masha ham Pyotrga ko’ngil beradi. Bunga ko’nika olmagan Shvabrin esa Pyotrning otasiga o’g’li bilan bo’lgan janjalni va uni yaralanganini aytib, Homid kabi nomsiz xat yo’llaydi. Bundan tashqari, Pugachyov qo’zg’olonidan so’ng Pyotrni nohaq ayblab, uning ustidan yolg’on ko’rsatma beradi. Pyotr ham Otabek singari gunohsiz bo’lganligi uchun oqlanadi va Homid qilgan qabihliklar uchun jon taslim qilgan bo’lsa, Shvabrin xoinligi uchun qamaladi.

SYUJET MOTIVLARIDAGI O'XSHASHLIKLAR

Biz yuqorida “O'tkan kunlar” va “Kapitan qizi” asarlaridagi obrazlarning mushtaraklik tomonlarini ko'rib o'tdik. Bu asarlarning syujet motivlarida ham birmuncha o'xshashliklar mavjud bo'lib, biz birinchi o'rinda voqealarni sirli bayon qilinishiga to'xtalib o'tsak. “O'tkan kunlar”da asarning boshlaridanoq ko'zga tashlanadigan yozuvchining o'ziga xos uslubi: tasvirda voqealarning ma'lum bir tomonini sir saqlashdir. Biroq voqea yo ro'y bergan; yo ro'y berayotir va yoki ro'y bermoqchi. Ammo yozuvchi bu voqea bilan kitobxonni darrov tanishtira qolmay: sir saqlaydi. Ba'zan voqeaning mohiyatini yashiradi. Masalan, Otabekning oshiqligini uning psixologiyasida ro'y berayotgan ma'lum bir o'zgarishlardan bilib olishimiz mumkin (Otabekdagi bu o'zgarishlarni biz yuqorida uning Kumushga bo'lgan muhabbatida ko'rib o'tdik). Otabekning xarakteridagi bu o'zgarishlardan va uyqisragan tovushlaridan Hasanali sir ayon bo'ladi – “bek oshiq”. Otabekning oshiqligi ayon bo'lsa ham, sir hali tugal ochilgani yo'q. Chunki Otabek kimga, qanday qizga oshiq bo'lgan – masalaning bu tamonlari muommo. Xuddi shu yerda Kumush obrazi kirib keladi. Otabek Rahmatdan Kumush ta'rifini eshitgan, Marg'ilonning tengi yo'q go'zali ekanligini bilgan edi. Agar Otabek Kumushga oshiq bo'lsa, u qizni qayerda ko'rib oshiq bo'lgan? O'sha davr sharoitida qizlar, ayniqsa, go'zal qizlar ichkarida berk o'tiradigan paytlarida qayerda ham ko'rishishlari mumkin edi? Masalaning mana shu tomonlari sirlicha qoladi.

Otabekni-yu masalasi ayon: u Kumushga oshiq bo'lgani va Hasanali tomonidan maqsadiga erishgani ma'lumdir. Lekin endi Kumushbibida bo'layotgan o'zgarishlar kishini shubhaga solib qo'yadi. U kiyov kim ekanini bilmaydi. U o'zi

unashtirilgan yigit haqida To'ybeka tomonidan maqtalgan mehmonligini biladi, xolos. Mana shu sabablardan kuyov to'g'risida gap ochiladigan bo'lsa, kun-u tun yig'laydi. Buni sababi nimada? U ham Otabek singari oshiqmi? Unday bo'lsa kimga? Otabekkami? Lekin u Otabekni hali ko'rmagan, ustiga – ustak kuyov Otabek bo'laturib, u haqida eshitsa, “tun ham yig'laydi, kun ham”, sababini so'rasa, “sira javob bermaydir-da, do'lanadek ko'z yoshisini oqiza beradi”. Qodiriy bu savollarni yashirib keladi. Sir qachon ochiladi?

To'y kuni. Kumush “begona” yigit bilan ko'rishishni xohlamaydi. Otabek uni oldiga yaqinlashganda ham unga qarashni istamaydi, oxirida “majburiyat ostida, yovqarash bilan sekingina dushmaniga qaradi... Shu qarashda birmuncha vaqt qotib qoldi. Shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan hayajonlang'an bir tovush bilan so'radi:

- Siz o'shami?
- Men o'sha! – dedi bek”.

Sir ochildi. Demak, Otabek bilan Kumush bir-birlarini oldin ko'rishgan, ana endi ularni qanday qilib uchrashganliklari haqida muallif qisqacha izoh berib ketadi. Otabek Marg'ilonga kelganiga ikki kun bo'lganida asr namoziga “tahorat olish uchun” do'kondordan suv so'raydi va uning ko'rsatmasi bilan qutidorning tashqari hovlisiga kiradi. Shu payt tasodifan Kumush ham chiqib qoladi. “Ixtiyoriy emas, g'ayri ixtiyoriy ikkisi ham bir-birisidan birmuncha vaqt ko'z” uzolmay qoladilar. Mana ularning qanday uchrashganliklari va ulardagi psixologik o'zgarishlarning sababi ham mana shunda.

“Kapitan qizi” asarida ham bunday sirli voqealarga duch kelishimiz mumkin. Pugachyov Belogor qal'asini bosib olgach, o'ziga bo'ysinmaganlarni dorga ostiradi va navbat Pyotrغا kelganda, Shvabrinning gapi bilan unga qaramasdanoq osishga buyruq beradi. Shu payt Pugachyov Savelichni ko'rishi va uni yolvorishini ko'rib Pyotrni afv qiladi va unga “tomirlari chiqqan qo'lini” uzatadi. Hamma unga “O'p qo'lini, o'p!” deyishadi, ammo u “shunday qabih tubanlikdan ko'ra eng qattiq jazoni afzalroq” ko'radi. Shunda ham Pugachyov uni

qo'yib yuboradi. Nima sababdan Pugachyov qal'ada unga bo'ysunmagan barchani osib yuboradi-yu, bo'ysunmasa ham birgina Pyotrni afv qiladi? Bu narsa "O'tkan kunlar" romanidagidek sir saqlanadi, o'quvchini qiziqtiradi. Sirni ochish uchun Pyotrni Belogor qal'asiga kelayotganda bo'lib o'tgan voqeani eslash lozim: Yo'lda bo'ron paytida bir notanish pyonistani uchratib qoladilar u orqali karvonsaroyga yetib oladilar va unga quyon terisidan tikilgan po'stinini in'om qiladi. Ne ajab bo'lsinkim, butun hukumatni larzaga keltirgan isyonchi Pugachyov o'sha pyonista bo'lib chiqadi. Kitobxon buni xayoliga ham keltirmaydi, zero, muallif bu sirni birdaniga ochmay, voqea bo'lib o'tkandan so'ng bayon qiladi.

Bu sirli voqealarga asarning boshqa o'rinlarida ham duch kelishimiz mumkin. Pyotr nohaq qamalganida, uni qutqarish uchun Mariya Ivanovna podsho xonimga arz qilgani Sofiyaga boradi. O'sha paytda podshoh xonim bilan uchrashish tugul, saroyga kirishning o'zi muommo edi. Lekin Masha bog'da sayr qilib yurganida "qip-qizil yuzi ulug'vorlik va osoyishtalik" ifoda etgan bir ayol bilan suhbatlashib qoladi, unga nima maqsadda bu yerga kelganini va barcha boshidan kechirgan voqealarni oqizmay-tomizmay aytib beradi. Xonim uning so'zlarini diqqat bilan tinglab, qayerda turganligini so'raydi va "Arizangizga javobni ko'p kutmasligingizga ishonaman" deb ko'zdan g'oyib bo'ladi. Ertasiga Mashani malika saroyga chaqiradi, ne ko'z bilan ko'rsinki, podshoh xonim o'sha bog'da ko'rishgan xonim bo'lib chiqadi. Bunday voqealarni sirli bayon qilish yozuvchining mahoratiga bog'liqdir.

Ikki asar voqealaridagi tush ko'rish hodisasidagi o'xshashliklarni olaylik. To'g'ri, tush ko'rish hodisalari boshqa asarlarda, ayniqsa, dostonlarda ko'plab uchraydi. Lekin dostonlarda tush ko'rish, asosan, reallikka yaqin bo'lmaydi. Masalan, ikki qahramon umrida bir - birlarini ko'rmagan bo'lsa ham tushida ko'rib bir - birlarini yoqtirib qoladilar. Biz ko'radigan asarlardagi qahramonlarning tush ko'rish hodisalari boshqacha tusda ro'y beradi, reallikka yaqin bo'ladi. Otabek ham, Pyotr ham tush ko'radi. Ularning tushlari orqali hayotlarida bo'ladigan katta ko'ngilsiz voqealar ayon bo'ladi. Otabek tush ko'radi: "Chamanda gullar ochilgan

emish... Bu gulshan uning o'ziniki emish... Ul rango - rang chechaklardan ko'zini ololmas emish. Tevarakka kelgan yovdan xavf bor emish... Xanjarini ushlab yovga qarshi chiqqan emish... Yov qochqan emish... Yov orasida onasi ham bor, otasi ham ko'rinar emish... Qaytib chamanga kirsa bir sigir gulni bosib, yanchib o'tlab yurg'an emish... Bu holdan o'zini unutkan va qo'lidag'i xanjari bilan sigirga yugurgan emish... Sigir emas - sariq sochlik albasti emish... Darmonsizlang'an va xanjari qo'lidan tushgan emish... Dunyoni qorong'ulik bosqan emish... ”. Otabekning bu xil tush ko'rishi bekorga emas, albatta. Chunki tushning deyarli barcha qismlari o'tmish kechinmalar, voqealar bilan bog'langan. Agar gulshanni Otabekning muhabbati, Kumush deb tushunsak, yov – Homid va Otabekning ota - onasi, ammo Otabek bu yovni bartaraf qilgan. Gullarni bosib yurgan sigir – Zaynab deyishimiz mumkin. Otabekning tushdan keying qismatida Zaynab Otabekning muhabbati Kumushni zaxarlab o'ldiradi, vaholanki, tushda Otabek bunga qarshi “darmonsizlang'an va xanjari qo'lidan tushgan” edi. Yana tushdagi sigir albastiga aylanadi, Otabek Kumush qabrini ziyorat qilgani borganda “majnuna Zaynabni” ko'radi. Bu paytda Zaynab Otabekka o'sha albasti singari edi.

Endi ikkinchi qahramonimiz Pyotrning tush ko'rish holatini olaylik. U Savelich va yamshik bilan Orenburgga ketayotganlarida bo'ron tufayli yo'ldan adashadilar. Shu payt notanish kimsani uchratadilar, o'sha notanish kimsa ularga yetakchilik qiladi. Yo'lda ketar ekan Pyotr tush ko'radi. Tushida uyiga borib qolgan bo'lib, uyiga kirsa, otasi betob bo'ladi, onasi otasidan duo olishini aytadi va u bemorni oldiga borib unga tikilib, shuni ko'radi: “Otamning o'rnida qora soqolli bir mujik yotibdi, menga kulib qaraydi. Men hayron bo'lib onamga qaradim – Bu nima gap? Bu otam emas. Nechuk men mujikning duosini olar ekanman?” – dedim. “Baribir, Petrusha, - dedi onam, - bu sening otang o'rnidagi kishi; qo'lini o'p seni duo qilsin...” Men ko'nmadim. Shu vaqt mujik irg'ib o'rnidan turdi, orqasidan bolta olib, har tomonga hamla qila boshladi. Qochmoqchi bo'ldim... lekin qocholmadim; uy o'likka to'ldi; o'liklarga qoqinaman, ko'lmak bo'lib yotgan qonga toyilaman... Vahimali mujik shirin so'z bilan meni yoniga chaqirdi: “Qo'rqma mening duomni ol...” dedi. Haddan tashqari qo'rqdim, gangidim...” shu

vaqtda Pyotr uyg'onib ketadi. Uning ham keyingi qismati Otabek kabi tushida ayon bo'ladi. Pyotrga yetakchilik qilgan shaxs keyinchalik isyonchi Pugachyov bo'lib chiqishini yuqorida ham ta'kidlagan edik. Shu kabi tushida ko'rgan otasi o'rnidagi mujik Pugachyovdir. Tushida mujikni qo'lini o'pib, duosini olishdan bosh tortgani kabi, keyinchalik o'ngida Pugachyov qal'ani egallab, barchani qo'lini o'ptirib, o'ziga ont ichirganda Pyotr uni qo'lini o'pmaydi. Tushda ayon bo'lganidek, Pugachyov o'ziga bo'ysumagan barchani o'ldiradi, lekin shular ichidan Pyotrgina omon qoladi va Pugachyov unga yaxshi gapiradi. Xususan, Pyotrdagi bu holatlar Otabek singari, oldindan tushida namoyon bo'lgan edi.

Bu xildagi o'xshashliklarni Homid bilan Shvabrinda ham ko'rishimiz mumkin. Homid o'zidagi chaqimchilik illatidan foydalanib, Otabekni yo'q qilish uchun Musulmonqulga nomsiz xat yo'llaydi. Shvabrin ham shu maqsadda, yani Masha bilan Pyotrning muhabbatiga hasad qilib, duelda yaralanganini Pyotrning otasiga (Homidga o'xshab) nomsiz xat yo'llaydi. Ular qilgan bu qabihliklari biroz muddat ular tomonga og'adi, lekin haqiqat baribir qaror topadi: Otabek Musulmonqul changalidan qutulib qolsa, Pyotrning otasi Mashaga ko'ngli yumshaydi va uni o'z qizidek ko'ra boshlaydi.

Bundan tashqari, "O'tkan kunlar"da Rahmat Marg'ilonda go'zallikda tengi yo'q bo'lgan Kumush haqida Otabekka maqtayotganda, Homidda bir o'zgarish bo'ladi va "yer ostidan" jiyaniga qarab qo'yadi. Otabekdagi o'zgarishni ham ko'rib, Homidning jahli chiqadi. Xuddi shunday Shvabrin ham Pyotrning Mashaga atab yozgan Sheridan achchig'lanadi va Pyotrni ko'nglini sovutish uchun Masha haqida bo'lmag'ur gaplarni tarqatadi.

Asarlarda bu kabi o'xshashliklar juda ko'p bo'lib, Kumushbibida paydo bo'lgan og'ir dardni olaylik. U Otabek bilan ariq bo'yida ko'rishib, pinhoni bir - birlarini yoqtirib qoladilar. O'sha zamon talabi bilan qizlar ota - onasi rozi bo'lsa, kuyovni ko'rmasdanoq turmushga chiqa berganlar. Kumushni ham unashtiradilar, lekin u kuyovni ko'rmagan ham, tanimaydi ham. To'yi kuni "yot bir yigit"ga erk - ixtiyorsiz erga berilayotgani va bu "yot yigit" bilan uchrashuv soatlari yaqinlashib

kelayotgani tufayli Kumushbibida paydo bo'lgan og'ir dard va ichida to'lib - toshgan oh - faryodni yozuvchi "Yig'larman" kuyi orqali aks ettiradi. Bu kuy Kumushning to'yi kuni qizlar majlisida Gulsin o'zining "qo'ng'iroqdek tovushi bilan" bu kuyni boshlaydi:

"O'rtoqlarim, qo'lga olsam torimni,

Beixtiyor yodlaydirman yorimni!"

Bu qo'shiqni musiqaviy tovushini eshitgan va "shu shoqqacha mo'ltayib xayol ichida sho'ng'ib o'ltirgan Kumushbibi bir seskandi-da, qo'shiqchi qizlarga qaradi".

Yozuvchi Kumushbibi holatini ko'rsatishga mos qo'shiqni tanlagan va bu bilan maqsadga erishgan.

"Qizlar ikkinchi baytga o'tdilar:

Bir ko'rinib yag'mo qilgan ko'nglimni,

Qaytib yana ko'rolmadim norimni!

Shu vaqt kutilmagan joyda Kumushning ikki ko'zi jiq yoshga to'lgan edi. Uchinchiga o'tdilar:

Agar ko'rsam edi yana yorimni,

Bag'ishlardim hama yo'qu borimni!

To'rtinchi:

Bilurmikin, bilasmikin u zolim:

Kunlar - tunlar tortqan ohu zorimni!

Kumush toqatsizlang'an edi...

Beshinchi:

Chinin ayting o'rtoqlarim menga siz,

Qayta boshdan ko'rarmanmi yorimni?

Keyingi:

Ketdi toqat, ketdi sabrim... ketdilar...

Sindirarman urib yerga torimni!

Bu keying baytka quloq solg'uchi qolmadi. Chunki yonidagi qizg'a osilib yig'lay boshlag'an Kumushbibiga har kim taajjubda, har kimning ko'zi, qulog'i shunda edi". Mana Kumushning ruhiy - psixologik holati qo'shiqda to'la namoyon bo'ladi.

Shunday syujetni "Kapitan qizi" asarida ham ko'rishimiz mumkin: Pugachyov Belogor qal'asini egallagach, komendatning uyida o'ziga yaqin kishilar bilan bazm qiladi. Bu yerga Pyotrni ham taklif qiladi, u yerdagi dorga osilgan begunohlarni ko'rgan Pyotr ancha tushkunlikka tushadi, dushmanlarga nisbatan nafrat uyg'onadi. Bu ziyofatda ishtirok etgan Pyotr Pugachyovning eng yaqin kishisi Chumakov tomonidan aytilgan dor haqidagi sodda xalq qo'shig'ini eshitgan Pyotr qattiq ta'sirlanadi. Osilishga mahkum bo'lgan kishilar tomonidan aytilgan bu qo'shiq "ularning qo'rqinchli basharalari, kelishgan tovushlari, usiz ham ta'sirli bo'lgan so'zlarga mung berishlari" Pyotrni vahimaga soladi. Yuqorida Kumushga qo'shiq qay yo'sinda ta'sir qilgan bo'lsa, Pyotrga ham shunday ta'sir qiladi. Lekin Pyotrda bu holat Kumush singari tasvirlanmagan.

XULOSA

Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romani va Pushkinning “Kapitan qizi” povesti o’zbek va rus adabiyotida salmoqli o’rin egallagan asarlardir. Bu asarlar davr jihatidan ham bir xil vaqtda yaratilmagan, makon jihatidan ham bir xil xalqlar ijodidan so’ylamaydigan va janr jihatidan ham bir xil bo’lmagan ikki xil asarlardir. Mavzuyimizning dolzarbligi shundaki, bu ikki adib va ularning asarlari ko’pgina olimlar tomonidan o’rganilgan, lekin bu asarlarning bir - biriga qiyosiy talqini hali to’laligicha yoritilib berilgani yo’q. Shu nuqtayi nazardan ilmiy izlanishimiz davomida bu nodir asarlarni bir - biriga o’xshash va farqli jihatlarini ko’rib o’tdik. Shu jihatdan, o’rganilgan asarlar haqida quydagicha xulosa keltirish mumkin:

Biz, birinchi navbatda, obrazlar mushtarakligiga to’xtalib o’tdik. Qodiriy asarida ham Pushkin asarida ham bosh qahramonlar hayotida o’xshashliklar bor. Ularga aloqador bo’lgan shaxslar ham bir xil darajalanadi (1 va 2 sxemalar). Ulardagi yuksak insoniy tuyg’ularni ham misollar orqali ko’rib o’tdik, xususan, ornomus, sevgi va sadoqat, Vataniga bo’lgan muhabbat kabi hislatlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, asarlardagi voqealar rivojida ham ko’p o’xshashliklarni guvohi bo’ldik. Xatto adiblar o’zbek xalq og’zaki ijodidan ham o’rinli foydalanganlar. Qahramonlarning so’z bilan tasvirlab bo’lmaydigan hissiy kechinmalarini xalq tili bilan aytiladigan qo’shiqqa singdirib yuboradilar.

Yana bu ikki asardagi qahramonlar hayotidan o’zimizga yetarlicha ibratli xulosalar chiqarishimiz mumkin. Asarlarning umumiy g’oyalarini birlashtiradigan

bo'lsak, ularning alohida e'tirofga loyiq jihati shundaki, asarlarda bosh qahramonlarning faqat sevgisi emas, balki ular orqali xilma - xil insoniy taqdir, ijtimoiy - siyosiy, ma'naviy - axloqiy muommolar qalamga olinadi. Biroq ular orasida yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Unda keltirilgan voqealar va tarixiy ma'lumotlar har bir o'zbek va rus kitobxoni uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Qodiriy O'tkan kunlar / Roman. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2014. – 460 b.
2. A.S.Pushkin Kapitan qizi / Povest. – T.
3. F. Nasriddinov Adibning yo'li (Abdulla Qodiriy mahorati). – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – 120 b.
4. M. Qo'shjonov O'zbekning o'zligi (Qodiriyga armug'on). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – 136 b.
5. Sharq yulduzi / jurnal. – T.: O'qutuvchi, 2014. – 4-son.
6. S.Mirvaliyev “O'tkan kunlar” – tarixiy roman / Maqola. – O'zbek tili va adabiyoti jurnali – 2004. – 2-son.